

MALLA SAVDOGAR DOSTONIDA VOQEALAR RIVOJIDA XAT DETALINI SABAB BO'LISHI

Achilova Zuxra Qurbonovna

*Shahrisabz davlat pedagogika insituti
o'zbek tili va dabiyoti yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: *Maqolada detal tushunchasi, xat turlari, Malla savdogar dostoni variantlarida xat orqali voqealarni yuzaga kelishi haqida mulohaza etilgan*

Kalit so'zlar: *xat, detal, xat turlari, xat tarixi, Malla savdogar dostoni, voqelar hodisasida xat o'rni*

Adabiyotshunoslik ilmida detal badiiy asarda muayyn mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy etetik yuk tashuvchi tafsilot deb ta'riflanadi.

Detal badiiy voqelikni yaratish ositasi –ashyosi bo'lib, u tasvirlanayotgan narsa-hodisani konretlashtiradi, uni hissiy idrok qilish mumkin bo'lgan tarzda gavdalantiradi. [1.89-b.]

Bu tarfdan kelib chiqqan holda Malla savdogar dostonida xat detali bilan bog'liq syujet mavjud. Xat detali bilan bog'liq doston avvalo xat moziyiga chorlaydi.

Xat insonlar o'rtasidagi muloqot shakllaridan biri bo'lib, uning yuzaga kelishi yozuv va masofa bilan bog'liqdir. Ya'ni u faqat yozuv yordamidagina shakllanadi va ma'lum masofada bo'lgan kishiga jo'natiladi. Unda xat muallifining fikr-mulohazalari va his-tug'ulari ifoda etiladi. Xatni jo'natish esa ma'lum vositalar yordamida amalga oshiriladi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da ushbu so'ning 9 ta ma'nosi berilgan. 1.Uzoqdagi kishiga biror xabar berish yoki fikrlashish maqsadida, odatda, pochta orqali yuboriladigan, biror matn yozilgan qog'oz, noma, maktub; 2. Xatda yozilgan matn, xat matni; 3.Yozuv uchun ishlatiladigan grafik belgilar, harflar sistemasi, grafika; 4. Harflarni yozishdagi o'ziga xos uslub, ko'rinish, yozuv xili; 5.O'qish va yozish, savod, savodlilik; 6.Yozuvdagi har bir qator, satr yoki misra; 7. Chiziq, liniya; 8.Biror kimsa yoki narsani yozma ravishda sanab ko'rsatish, ro'yxatga olish, ro'yxat; 9.Rasmiy qog'oz, hujjat.

Bu o'rinda so'zning birinchi ma'nosi e'tiborga olinadi.

Yozuv bilan bog'liq ravishda o'z tarixiga ega bo'lgan va omma orasida keng tarqalgan xat bitish xalqimizning muamala madaniyati doirasida insonlarning bir-biriga fikr ifoda etishining alohida usuli sanalgan va san'at darajasiga ko'tarilgan hamda ayni paytda badiiy ijodning bir turi sifatida

qaralgan. Shuning uchun ham u badiiyat ilmida alohida bir janr sifatida o'rganilgan.[2. 127-b.]

Internet manbasida xat haqida quyidagicha ma'lumotlar keltirilgan

Xat (yo'naltirilgan xabar ma'nosida) — bu ma'lumotni masofadan uzatish va uni o'z vaqtida yetkazish uchun yozma matndan foydalanishga imkon beruvchi belgilar bilan nutqni mahkamlash tizimi.

Odatda, xat qog'ozga (yoki boshqa materiallarga) matn sifatida yoziladi va pochta yoki kuryer orqali yuboriladi.

Maktublar ikki yoki undan ortiq oluvchilar o'rtasidagi yozishmalarda qo'llaniladi.

Avvallari, maktub deb qog'ozga yoki boshqa vositada (loy parchasi, pergament varag'i yoki qayin po'stlog'i bo'lagi) qo'lda yozilgan matnli xabarni atashgan.

XVIII — XIX asrlar asosan yozma maktublar asri bo'lgan. O'qimishli kishilar muntazam ravishda xatlar qabul qilib, jo'natib turishgan. Tarixan harflarda qo'llaniladigan so'zlashuv so'z birikmalari, etiket tuzilmalari, so'roq va undov formulalari tizimi rivojlangan. XX asrda dastlab telegraflarning, keyin esa telefonlarning tarqalishi pochta yozishmalarining ahamiyatini pasaytirdi[1].

Hozirgi vaqtda xat elektron shaklda (masalan, elektron pochta orqali) yoki SMS (mobil telefon) orqali yaratilgan va yoki uzatiladigan xabar sifatida ham tushuniladi. Bunday xat nafaqat matnni, balki turli xil multimedia elementlarini ham o'z ichiga olishi mumkin (masalan, tasvirlar video va audio yozuvlar).[3.internet manba]

Jo'ra Eshmirza baxshi kuylagan Malla savdogar dostoni variantida xatxabarchini qiz bola ekanligini Ahmad vazir bilib qolishi va bu vaziyat sinovli voqealar ro'y berishiga sababchi bo'ladi.

“...yanga kissadan chiqarib berdi xatni. Soqi olib borib, Go'ro'g'lining peshonasidan to'g'ri tutib, Go'ro'g'li xatning betiga shunday ser (zehn) solib, xatning qaytarib buklab, ko'rpaning qatiga qo'ydi. Ahmad xatning bir chetidan xiyoli sezib qoldi, xatni olib kelgan mehmonning qiz ekanini Ahmad bilib qoldi. Bu variantda xatxabarchi qiz ismi Oydon. [4. 300-301-b.]

Chorshanbi baxsi Rahmatulayev kuylagan Malla savdogar dostoni variantda Go'ro'g'liga tushida g'oyibona oshiq bo'lib qolgan Bog'dod podshohining qizi Zulfizar kanizi Oyxumorga xat bitib berib, otasini otboqarini chaqirib, uchqur otni tayyorlatib, uni erkak libosida xushsurat yigit suratida Chambilga yuboradi.

Ahmad sardor Chambini baland qiriga chiqib durbin bilan bu mamlakatga mehmon bo'lguvchilarni kelishini qaraydi. To'rtinchi kuni yana shu joyga kelib

kuzatsa, uzoqdan bir otliq ko 'rinadi. Buni ko 'rib Ahmad sardor Go'ro'g'liga xabar yetkazib, suyunchi olmoqqa shoshib iziga qaytmoqchi bo 'ladi, ammo uzoqdagi otliq uning ko'ziga g'alati ko 'rinadi.

“Ahmad aytdi: “Bu xumpar erkakka o'xshamaydi, hamma tomoni tekis, oyoqlari ingichka, anig'ini bilib olayin”, – deb besabr bo'lib, goh turib, goh enkayib, goh cho'nqayib mehmondi uzoqdan durbin bilan kuzatadi.

Mingan oti Olatarlon bo'z ekan,

Ahmad sardor shunday o'tkirko 'z ekan,

Fikru xayollari juda tez ekan,

Anig'ini bilib ahmadxon

Kelayotgan mehmon go 'zal qiz ekan.[5. 7-8-b.]

Shoberdi baxshi Boltayev kuylagan Malla savdogar dostonida esa Qoraxon podshohning Guloyim degan qizi Chambilda bir mo'ylovli yigit bo'loyatogan ko'pkari bergani aytiladi. Avazxon ko 'pkarida uloqni ko 'tarib taqimlab borayotganda, bir chavandoz lochinqushdek yaqinlashib, uni taqimidagi uloqni yulib ayirib ketadi. U aslida Qoraxon podshohning qizi Guloyim bo 'lib, u oasining Qorado 'ng degan polvonning otini minib, erkak libosini kiyib, bor kuchi bilan ko 'pkarida harakat qiladi. [5. 191-192-b]

Baxshi Abdunazar Poyonov kuylagan Malla savdogar dostonida Chambil elini qirq yitning nomdoridan biri bo 'lgan Xoldorxon o'g'liga to'y boshlaydi. To'yda yetti iqlimdan mehmonlar keladi. To'y bahonasida ko'pkari, kurash, dorbozlar, poygalar va boshqa uyinlar, qo'shiqlarchilar o'z hunarlarini ko'rsatadi. To'yning ko'pkarisiga Go'ro'g'lini tog'asi bakovullik qiladi.

Ko'pkariga Avazxon otasi Go'ro'g'lini oti G'irotni minib ko'pkrai maydoniga uloq yutishga shaylanadi. Shu chog 'da Ahmad sardor uzoqdan to'bal otda minib kelayotgan kimsa ko'ziga g'alati ko'radi.

Baxshi ta'rificha: “Ahmad juda ko'zi o'tkir, yuragi sezgir edi. Tulkinging urg 'ochi yoki erkakaligini bir kunlik yo 'ldan bilar edi. Kelgan otliq mehmonning yiroqdan kelganligini bilib, qayerdanligini keyin so 'rayman deb” ko'pkarini boshlatadi. [5. 274-278-b]

Ko 'pkarida uloq tortish jarayonida notanish chavandoz Avazxonning taqimidan takani sug 'irib olishi, lekin halol bo 'lmasdan tushirib yuboradi. “Shunda Ahmad sardor bu chobog'onning erkak emas, ayol ekanligini sezadi, er yigit bo'lganda takani tushirmay olib ketardi deb ko'ngliga tugib qo'ydi.”[5. 280-b.]

Demak keltirilgan to 'rtta doston variantini ikkitasida xat bilan bog 'liq voqealar rivoji aks etsa, yana boshqa ikki variantida ko'pkari bilan voqealar boshlanib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO ‘YXATI:

1. D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva, Adabiyotshunoslik lug ‘ati, 89-b, T. “Akademnashr”, 2010-yil.
2. S.A.Karimov, Sh. M. Maxmatmurodov, O.N.Karimova. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. 127-b. 318-319]. T. “O ‘zbekiston” nashriyoti, 2003-yil.127-b.
3. Internet manba
- 4.Malla savdogar dostoni (Baxshi Jo ‘ra Eshmira kuylagan variant) 4. 300-301-b. Ziyo.uz kutubxonasi
- 5.Malla savdogar dostoni, Baxshi Chorshanbe Rahmatullayev kuylagan variant),7-8-b. Shoberdi Boltayev kuylagan variant, 191-192-b., Abdunazar Poyonov kuylagan variant, 274-278-b., T. “Akademnashr” 2019-yil.